

**AYOLLARNING IJTIMOIIY MOSLASHUV JARAYONIDA ROL
ZIDDIYATLARI VA TASHKILIIY MUHITNING PSIXOLOGIK TA’SIRI**

Maxkamova Difuza Baxtiyarovna

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida ayollarning moslashuv inqirozi, qadriyatlar transformatsiyasi, kasbiy faollik va oilaviy hayot o‘rtasidagi muvozanat masalalari ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida ochib beriladi. Ayollarning iqtisodiy sharoitlarga moslashuv darajalari, ularning hissiy holati, optimizm yoki pessimizmga moyilligi, shuningdek, mehnat bozoridagi xulq-atvor strategiyalari tahlil qilinadi. Davlat va xususiy tashkilotlarda faoliyat yurituvchi ayollarning ijtimoiy moslashuv xususiyatlari qiyosiy jihatdan yoritilib, mehnat sharoitlari, ish rejimi, moddiy qoniqish va jamoaviy munosabatlarning adaptiv jarayonga ta’siri aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: ayollarning ijtimoiy moslashuvi, rol ziddiyati, kasbiy va oilaviy rollar, adaptiv xulq-atvor, moslashuv inqirozi, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, davlat xizmatlari, xususiy sektor, tashkiliy muhit, psixologik farovonlik

Ayollarning ijtimoiy moslashuvi samaradorligiga to‘sqinlik qiluvchi muhim psixologik omillardan biri ishlovchi ayol shaxsida yuzaga keladigan rol ziddiyatlari hisoblanadi. Rol ziddiyati muayyan ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan shaxsning bir-biriga mos kelmaydigan rol kutilmalari bilan to‘qnash kelishi va ushbu rol talablarini to‘liq bajara olmasligi bilan tavsiflanadigan holatdir. Ishchi ayollarda rol ziddiyatlari, asosan, ularning bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy rollarda – oilaviy va kasbiy sohalarida faoliyat yuritishi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Mazkur rollarning qarama-qarshi talablari, ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan vaqt, jismoniy va psixologik resurslarning yetishmasligi natijasida rollararo ziddiyatlar kuchayib, destruktiv yo‘nalishga ega bo‘la boshlaydi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, jumladan Yu.A.Aleshina, E.V.Lektorskaya va Z.A.Xotkinalar tomonidan ta’kidlanganidek, rol ziddiyatlarining kuchayishiga ayolning o‘ziga nisbatan qo‘yadigan asossiz yuqori talablar hamda rol me’yorlarining haddan tashqari ideallashtirilganligi ham sabab bo‘lishi mumkin. Kasbiy faoliyat ayol shaxsining ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga, shaxsiy mustaqillik va o‘zini o‘zi qadrlash tuyg‘usini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan birga, uning oilaviy hayotda o‘zini o‘zi anglash uchun ajratadigan vaqtini qisqartiradi. Bu holat ko‘pincha rollarning haddan tashqari keskinlashuvi va ziddiyat yuklamasining ortishiga olib keladi.

Ayollarning kasbiy faoliyati aksariyat hollarda oilada o‘rtacha yashash darajasini ta’minlash zarurati bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli ish va oilaviy rollarni birlashtirish rollar keskinligining asosiy manbalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi va ushbu haqiqatni inkor etib bo‘lmaydi. Ayollarning ko‘pchiligida yangi shakllanayotgan institutsional tuzilmalar va iqtisodiy xulq-atvor modellariga moslashishdagi qiyinchiliklar, barqaror

15-Noyabr, 2025-yil

ijtimoiy o‘ziga xoslikning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan ifodalangan inqiroz holati kuzatiladi. Mazkur holat o‘tish davrining obyektiv xarakteristikasi sifatida baholanadi.

Moslashuv inqirozi professionalizm va malakaga asoslangan ishlab chiqarish modellarining muvaffaqiyatsizligi hamda aksincha, yarim jinoiy faoliyat shakllarining nisbatan muvaffaqiyatli bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon nafaqat ijtimoiy dinamikani sekinlashtiradi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga ham jiddiy tahdid soladi. Moddiy qiyinchiliklar, psixologik, tibbiy va ijtimoiy muammolar avvalgi ideallar va qadriyatlarning inqirozga uchrashi, ularning ijtimoiy jihatdan talab qilinmasligi bilan yanada kuchayadi. Ushbu omillar yig‘indisi ayollarning o‘zgaruvchan sharoitlarda hayotga ijtimoiy moslashuv jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Jamiyatda ijtimoiy o‘zgarishlar kechayotgan davrda ayollarning moslashuv sharoitlari va omillarini o‘rganish ularning hayotiy yo‘nalishlari va qadriyat intilishlarini baholash, mehnat bozoridagi xulq-atvor dinamikasini aniqlash, ijtimoiy imtiyozlar hamda o‘zini o‘zi himoya qilishning mumkin bo‘lgan vositalarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu jarayon ayollarning iqtisodiy ahvolni, mamlakatdagi vaziyatni qanday baholashlari, o‘zlari va farzandlarining yashashi hamda rivojlanishini qanday vositalar orqali ta‘minlashni maqsad qilganliklari, shuningdek, ichki resurslarga tayanish yoki tashqi yordamga, ya‘ni davlat qo‘llab-quvvatlashiga suyanish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu jihatlar odatda “moslashuvchan xulq-atvor” tushunchasi doirasida birlashtiriladi.

Mazkur kontekstda adaptiv xulq-atvor deganda rejalashtirilgan maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan baholash, qaror qabul qilish va harakatlarning murakkab majmuasi, ya‘ni refleksiv, irodaviy va xulq-atvoriy faoliyat tushuniladi. E.N.Smetaninning tadqiqotlariga ko‘ra, ayollarning iqtisodiy sharoitlarga moslashuvining uch darajasi ajratib ko‘rsatiladi. Moslashuv darajasi yuqori bo‘lgan ayollar iqtisodiy islohotlarni zarur va foydali deb baholab, ularning shaxsiy faoliyati mavjud sharoitda barqaror rivojlanayotganini qayd etadilar. Ushbu ayollar islohotlardan muayyan darajada foyda ko‘rganliklari sababli psixologik qulaylik holatini his etib, o‘z ish faoliyatlarini izchil davom ettiradilar.

Moslashuv darajasi past bo‘lgan ayollar iqtisodiy o‘zgarishlarga nisbatan pessimist munosabat bildiradilar. Ularning fikricha, iqtisodiyotdagi transformatsiyalar shaxsiy hayotlarini sezilarli darajada murakkablashtirgan va muayyan yo‘qotishlarga olib kelgan. Natijada ularda salbiy hissiy kechinmalar, umidsizlik va frustratsiya holatlari ustunlik qiladi. O‘rtacha moslashuv darajasiga ega bo‘lgan ayollar esa oraliq pozitsiyani egallaydi. Ular yaxshi moslashgan ayollarga nisbatan islohotlarning hayotiga ta‘sirini baholashda tanqidiyroq yondashuvni namoyon etadilar. Qiyinchiliklar bilan bog‘liq tashvish va hissiy beqarorlik ularning psixologik holatiga xos bo‘lsa-da, bu holat me‘yoriy chegaralarda kechadi. Shu bilan birga, mazkur guruh vakillari qiyinchiliklar bilan bir qatorda ijobiy o‘zgarishlarni ham qayd etib, nisbatan optimistik pozitsiyani saqlab qoladilar.

Kasbiy faoliyat bilan band bo‘lgan, daromadi yuqori bo‘lgan, tadbirkorlik faoliyatini olib borayotgan, nufuzli yoki nisbatan yuqori haq to‘lanadigan lavozimlarni egallagan ayollar orasida mehnat faolligi, iqtisodiy mustaqillikka yo‘naltirilganlik va

15-Noyabr, 2025-yil

tashabbuskorlikning eng yuqori darajasi kuzatiladi. Biroq shunga qaramay, ko‘pchilik ayollar hayotning avvalgi istiqbollardan butunlay voz kechmaydilar. Ko‘rsatilgan guruhlardan tashqari barcha kasbiy toifalarda ayollar davlat korxonalarida ishlashni afzal ko‘rishlari aniqlanadi.

Muayyan moslashuv usullariga yo‘naltirilganlik asosan ayollarning kasbiy mansubligi, daromad darajasi va yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. Barcha kasbiy guruhlarda yosh avlod vakillari yuqori moslashuvchanlik qobiliyatini namoyon etadilar. Davlat bilan munosabatlarda otalik tamoyillaridan voz kechish, optimizmning yuqoriligi, o‘zini o‘zi himoya qilish va shaxsiy hayotiy resurslardan faol foydalanish kabi hayotiy prinsiplar ayollarda kasbiy moslashuvchanlikning ortishiga xizmat qiluvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Nazariy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollarning moslashuvchanligi nafaqat iqtisodiy vaziyat, balki tashkilotdagi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda kombinatsion xarakter kasb etadi. Tashkilot kontekstida ayollarning ijtimoiy moslashuvi ularning oilaviy holati, farzandlar soni hamda yaratilgan mehnat sharoitlariga bog‘liq ravishda uyg‘un yoki nomuvofiq tarzda kechadi. Demografik, iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik omillar ta‘sirida ijtimoiy moslashuv jarayoni kuchayishi yoki aksincha, susayishi mumkin.

Mazkur nazariy yondashuvlarning amaliy tasdig‘ini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar ayollarning davlat tashkilotlariga moslashishida namoyon bo‘ladigan psixologik xususiyatlarning sabab, vosita va omillarini tizimli ravishda aniqlash imkonini beradi. Davlat xizmatlarida faoliyat yurituvchi ayollarda dezadaptatsiya holatlari ko‘proq ish haqi darajasidan qoniqmaslik va jamoa bilan iliq munosabatlar o‘rnatishdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Xususiylash tashkilotlarda ishlovchi ayollarda esa moslasha olmaslik holatlari asosan mehnat sharoitlaridan qoniqmaslik, jamoadoshlari bilan munosabatlarning yomonligi va boshqa ikkilamchi omillar ta‘siri ostida yuzaga keladi.

Davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda mehnat sharoitidan qoniqmaslik ko‘pincha ish rejimining cho‘zilib ketishi, rejalashtirilmagan topshiriqlarning favqulodda vaziyatlarda bajarilishi zarurati hamda kutilmalar bilan real holat o‘rtasida disgarmonik ustanovkalarining shakllanishi bilan izohlanadi. Natijada ijtimoiy moslashuv darajasi pasayib, disfunktsional adaptiv sindrom belgilari vujudga kelishi mumkin.

“Ish bilan band bo‘lish ayollarning oilaviy hayot sikliga salbiylash ta‘sir ko‘rsatadi” mazmunidagi savolga berilgan javoblar tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat xizmatida faoliyat yurituvchi ayollarning ma‘lum qismi karyera rivoji oilaviy farovonlikni ham ta‘minlashini, boshqa qismi esa bu jarayon oilaviy muhit va turmush o‘rtog‘ining munosabatiga bog‘liqligini ta‘kidlagan. Xususiylash sektorda ishlovchi ayollar orasida esa ish bilan bandlikning oilaviy hayotga salbiylash ta‘siri kuchliroq his etilgan. Har ikkala sohada ham respondentlarning katta qismi oilaviy muhit va turmush o‘rtog‘ining munosabatini ish va oilaviy hayot o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlovchi muhim “ko‘prik” sifatida baholagan.

15-Noyabr, 2025-yil

Ijtimoiy moslashuv nuqtayi nazaridan ayollarni ishga qabul qilish jarayonida davlat xizmatlaridagi ish rejimi va real mehnat sharoitlari bilan to‘liq tanishtirish ularning keyingi moslashuv jarayonini sezilarli darajada tezlashtiruvchi omillardan biri sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Эргашева М.П. Ўзбекистонда хотин-қизлар фаоллигини юксалтиришда жамоатчилик фикрининг ўрни ва роли: Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация – Тошкент, 2020. - 142 б.
2. Доминяк В.И., Родионова Е.А. Социально-психологические особенности профессионального здоровья специалистов // Ананьевские чтения – 2013. Психология в здравоохранении: Материалы научной конференции, 22-24 октября 2013 г. / Отв. ред. О.Ю. Щелкова. – СПб.: Скифия-принт. – С. 362-364.
3. Долженкова Ю.В. Рекрутмент и адаптация персонала: современные кадровые технологии: монография / Ю.В. Долженкова, Г.Г Руденко, Акад. труда и соц. отношений. М.: АТиСО, 2014. – 183 с.
4. Аронсон Э. Теория диссонанса: прогресс и проблемы // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. М.: Изд-во МГУ, 2014. С. 111- 126.
5. Силласте Г.Г., Кожамжарова Г.Ж. Социальная дискриминация женщин как предмет социологического анализа // Социс. — 2007. — №31.
6. Бандура А., Уолтере Р. Принципы социального научения // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. М: Изд-во МГУ, 2014. С. 55-60.
7. Водопьянова И.Е. Активная жизненная позиция личности и профессиональная адаптация в условиях социально-экономического кризиса // Психологические проблемы самореализации личности. Вып. 2. СПб.: Изд- во СПбГУ, 2018. С. 144-153.